

YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR DUNYOQARASHIGA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR BIRLIGIGA ERISHISHDAGI MUAMMOLAR

Ahmadov Muhammadali Nurali o'g'li

Toshkent Farmasevtika instituti talabasi

e-mail: muhammadaliahmadov999@gmail.com,

tell:+998933845586

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14406865>

Annotatsiya: Yoshlar – har qanday jamiyatning kelajagi hisoblanadi va ularning dunyoqarashini shakllantirishda milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning birligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv jarayonlarida milliy qadriyatlar bilan umuminsoniy qadriyatlarning muvozanatini topish va bu jarayonda yuzaga kelayotgan muammolarga yechim topish – jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarurdir. Shuningdek, maqolada yoshlar orasida globallashuvning ta'siri, ularning milliy o'zligini saqlab qolish muammolari hamda umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan munosabatlari tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlarning yoshlar ongida mustahkam o'rnatilishi uchun ta'lim va tarbiyaning o'rni, oila, jamoatchilikning roli ham muhokama qilinadi

Kalit so'zlar: 1. Yoshlar dunyoqarashi 2. Milliy qadriyatlar 3. Umuminsoniy qadriyatlar 4. Globallashuv ta'siri 5. Milliy o'zlik 6. Qadriyatlar uyg'unligi 7. Ta'lim va tarbiya 8. Madaniy identifikatsiya 9. Oila va jamoat ta'siri 10. Barqaror rivojlanish

Bugun biz o'z oldimizga yangi o'yg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek oliy maqsad qo'yganmiz. Bu jarayonda esa, yoshlarning o'rni va ishtiroki alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash o'rinli. Ayniqsa, bugun har qanday millat madaniyatining sofliqini saqlash muammoga aylanib borayotgan bir davrda, yoshlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini milliylik va zamonaviylik ruhi uyg'unligida shakllantirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, «bugungi global makonda, o'zaro raqobat, turli siyosiy, iqtisodiy, g'oyaviy qarama-qarshiliklar nihoyatda kuchaygan hozirgi sharoitda yosh avlod tarbiyasining o'rni va ahamiyati har qashongidan ham ortib borayotganligi hech kimga sir emas».

Globallashuv, modernizatsiya, fan-texnika taraqqiyoti kabilarning ta'siri kun sayin ortib borayotganligi insoniyat tomonidan necha asrlardan buyon ulug'lanib kelayotgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tizimiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Va, ayniqsa, bu ta'sir yoshlarning ongi, tafakkuri bilan bog'liq ekanligi masalaning yanada dolzarb ekanligini ko'rsatdi. Chunki, har qanday millatning harakatlantiruvshi asosiy kushi bu-yoshlar hisoblanadi va ular jamiyatning rivojlanish dinamikasini belgilab beradi. Bu jarayonda esa, orzu-maqсадlari, intilishlarini belgilab beruvshi ma'naviy-axloqiy qiyofasi asosiy omil vazifasini bajaradi.

Yoshlarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish kelajakda mamlakatni inson shaxsi va erkinligi hurmat qilinadigan yuqori darajadagi imkoniyatlarni taqdim etuvchi jamiyat sifatida rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday jamiyatda insonning sha'ni, qadr-qimmatini ulug'lanadi, yuksak ma'naviy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar ustuvor hisoblanadi.

Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo'yisha o'zimizga xos va ta'sirshan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg'unshi va zararli g'oyalar, jinoyatshilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma'naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etishda barshamiz, avvalo,

siz, aziz yoshlar faol bo'lishingiz kerak. Xalqimizning ma'naviy qudrati va boqiy an'alarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz".

Har qanday jamiyatda uning a'zolarining ma'naviy-axloqiy qiyofasi shu jamiyatning avvaldan mavjud bo'lgan an'alari, qadriyatlari asosida shakllanib borishi tabiiy holdir. Albatta, bu jarayonda har qanday ma'naviy-axloqiy me'ros avloddan avlodga o'tgani sayin vorisiylik va novatorlik xususiyati kasb etib boradi. Ya'ni, o'zidan oldingi qadriyatlardan ma'lum qismini me'ros qilib olgani holda, uni jamiyat va zamonga moslashtirib, yangi mazmun va shakl bilan boyitishi tabiiy jarayondir.

Yoshlarda umuminsoniy qadriyatlarga munosabatini to'g'ri shakllantirish oila, maktab, jamoada, umuman ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish bilan belgilanadi.

Shu nuqtai-nazardan, bugungi avlod vakillari ma'naviy-axloqiy qiyofasining ham ajdodlarimizdan ko'ra farqli ravishda yangicha mazmun kasb etish jarayoni, ayniqsa, hozirgi informatsion texnologiyalar zamonida anchayin shiddat bilan kechmoqda desak, mubolag'a bo'lmaydi. Aytish joizki, jamiyat a'zolarining, xususan, yoshlarning nazdida ma'naviyat, axloq masalalari ikkinchi darajali ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy munosabatdan ko'ra, informatsion aloqalar rivojlangan bir davrda, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga ehtiyoj yanada kuchayib bormoqda.

Axloq va ma'naviyatning har qashon ham dolzarb ekanligi haqidagi fikrlar faqatgina hozirgi zamon yangiligi emas. Hattoki, Suqrot ham o'z davri yoshlarining tarbiyasi, axloqi o'zgarib ketganligidan g'azablangan va ularni insofli bo'lishga, axloqiy me'yorlarga amal qilishga shorlagan. Shundan kelib shiqib aytish mumkinki, har bir davrda jamiyatda aksariyat katta avlod tomonidan salbiy tendensiya va oqibatlariga sabab bo'ladigan hodisa sifatida baholanadigan axloqiy o'zgarishlar yuz berishi tabiiy jarayondir. Ushbu o'zgarishlar ba'zi insonlar tomonidan ma'naviyat va axloqqa tahdid deb hisoblansa, ba'zilar bu jarayonda kattalar va yoshlar o'zaro uyg'unlikni topishlari kerak, deb hisoblaydilar.

Endilikda, yoshlarning zamonaviy dunyoqarashini shakllantirish masalasi o'z hayotiy maqsadlari, orzu-intilishlari va axloqiy ideallarini izlayotgan zamonaviy yoshlar ushun ayniqsa juda dolzarb ekanligini ko'rsatdi. Shu nuqtai nazardan, yoshlar dunyoqarashi shakllanishiga ta'sir etuvshi omillar sifatida quyidagilarni taklif etdik: Insoniyat tarixiy taraqqiyoti ko'rsatadiki, qadriyatlar bu jamiyat o'zgarishiga mos ravishda harakatlanadigan ijtimoiy hodisadir. Shuningdek, axborotning mavqe'i tobora ustun bo'lib borayotgan bugungi raqamli jamiyatlarda faoliyat yurituvshi inson hayotida ma'naviy-axloqiy qarashlar ham ma'lum ma'noda yangi bosqichga o'ta boshladi. Endi, avvaldan mavjud bo'lgan qadriyatlar va an'anaviy tamoyillar bugun vujudga kelgan zamonaviy ijtimoiy muammolarni hal qilishda yangisha yondashuvni talab eta boshladi. Shu ma'noda, axborot makonida faoliyat yurituvshilarning, ya'ni axborot ishlab chiqaruvchilari va iste'molchilarining hatti-hakatlari boshqarib tartibga solib turuvshi falsafiy soha informatsion etika deb ataldi. Ushbu o'zgarishlardan kelib shiqadigan muammolar esa informatsion etikaning o'rganish ob'ekti deb e'tirof etilmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, axborot texnologiyalarining mislsiz rivojlanishi va har bir sohani qamrab olish darajasi ko'lamining tobora ortib borayotganligi o'z doirasida yangisha tushunchalarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Masalan, infosfera tushunshasi shular jumlasidandir. Bevosita tadqiqotimiz mavzusi hisoblangan informatsion etikaning ajralmas qismi hisoblangan bu tushunshaning mohiyatini anglab etish, o'ylaymizki, olib borayotgan izlanishlarimizning samaradorligining oshishiga xizmat qiladi.

2018 yil 21 sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning PF-5544-sonli Farmoni bilan qabul qilingan 2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini Innovatsion rivojlantirish strategiyasi davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish borasidagi Harakatlar strategiyasi hamda Ma'muriy islohotlar konsepsiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonining bevosita mantiqiy va izshil davomi bo'ldi. Zeroki, O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasining asosiy vazifalarilaridan biri sifatida "boshqaruvning zamonaviy usullari va vositalarini joriy etish orqali davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish" vazifasining belgilab qo'yilganligi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmonini amalga oshirish ushuni maxsus "yo'l xaritasi" tasdiqlangan edi. Shu boisdan ham yaqin istiqbolda mamlakatimiz ta'lim tizimini yangi bosqishga ko'tarish, rivojlangan dunyo ta'lim tizimlari bilan raqobatlasha oladigan hamda yurtimiz nufuzini jahonga yanada tanitishda zarur bo'lgan innovatsion g'oyalarni aks ettiruvshi ko'plab dastur va loyihalar ham ishlab shiqilmoqda va umumxalq muhokamasiga havola qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yisha Harakatlar strategiyasida "Ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy qilish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy qilishning samarali mexanizmlarini yaratish" kabi muhim vazifalar belgilandi. Bu esa, ijtimoiy sohada qator ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda amaliyotga joriy qilishni talab etadi.

Bugungi globallashuv davrida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. O'zbekiston mustaqillik yillarida milliy o'zlikni anglash va xalqaro hamjamiyatda o'z o'rnini topishga katta e'tibor qaratib, yoshlar tarbiyasida ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirishga intilmoqda. Biroq, bu yo'lda bir qator muammolar ham mavjud. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyati. Milliy qadriyatlar bir xalqning madaniyati, urf-odatlar, an'analar va tarixini o'zida mujassam etsa, umuminsoniy qadriyatlar tinchlik, inson huquqlari, adolat va bag'rikenglik kabi barcha xalqlar uchun mushtarak bo'lgan tamoyillarni ifodalaydi. Yoshlar dunyoqarashida bu ikki qadriyat turini uyg'unlashtirish nafaqat milliy o'zlikni saqlash, balki global miqyosda rivojlanish uchun ham muhimdir.

Muammolar

Yoshlar dunyoqarashida milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligiga erishish yo'lidagi asosiy to'siqlarni bir necha jihatlarida ko'rish mumkin:

1. Axborot xurujlari va globallashuvning ta'siri Internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi yoshlarning madaniy iste'moliga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Chetdan kirib kelayotgan ma'lumotlar milliy qadriyatlarni e'tibordan chetda qoldirishi yoki ularni zamonaviylikka to'siq sifatida talqin etilishiga olib kelmoqda.
2. Ta'lim tizimining yetarli darajada samarali bo'lmasligi Milliy qadriyatlarni yoshlarga yetkazishning asosiy vositasi ta'limdir. Biroq, o'quv dasturlarida milliy qadriyatlar zamonaviy va qiziqarli uslubda targ'ib etilmayotgani yoshlar orasida bu qadriyatlarga bo'lgan qiziqishni pasaytirmoqda.

3. Oila va jamiyatdagi tarbiyaning zaiflashuvi Oila tarbiyasida milliy qadriyatlarning o'rne kamayib, yoshlar ko'proq tashqi axborot manbalariga bog'lanib qolmoqda. Bu esa ularning dunyoqarashida milliy asoslarning zaiflashishiga sabab bo'ladi.

4. Ijtimoiy va iqtisodiy omillar Yoshlarning jamiyatdagi tengsizlik, ishsizlik kabi muammolari ularning dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatib, qadriyatlarni anglash jarayonida bir tomonlama fikrlashga olib kelmoqda.

Yechimlar

Muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish lozim:

1. Milliy qadriyatlarni zamonaviy formatda targ'ib qilish : Madaniy tadbirlar, zamonaviy filmlar, ijtimoiy media kontenti orqali milliy qadriyatlarni yoshlar uchun qiziqarli va qulay shaklda targ'ib etish zarur.

2. Ta'lim tizimini takomillashtirish : Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yorituvchi yangi darsliklar, o'quv materiallari va interaktiv usullarni joriy etish kerak. Ta'limda yoshlarni faol ishtirokchi sifatida jalb qiluvchi loyihalar tashkil etish samarali bo'ladi.

3. Oila va mahalla institutlarini mustahkamlash: Oilaviy va mahalliy tarbiyada milliy qadriyatlarning rolini oshirish, ota-onalarni va jamiyat faollarini yoshlar tarbiyasida faolroq ishtirok etishga undash lozim.

4. Iqtisodiy sharoitlarni yaxshilash : Yoshlar uchun bandlik imkoniyatlarini kengaytirish, ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarga e'tiborini oshirishga yordam berish mumkin.

Xulosa

Yangi O'zbekistonda yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligiga erishish — bu millat kelajagini ta'minlashning muhim omillaridan biridir. Muammolarni to'g'ri aniqlash va ularni samarali yechish orqali jamiyatning har bir a'zosi bu jarayonda o'z hissasini qo'shishi mumkin. Shu bois, barcha sohalarda milliy qadriyatlarni saqlab qolish va ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish masalasida doimiy harakat qilish zarur.

Foydalingan adabiyotlar ro'yxati

1. Ibrohimovich A. H. MODERN FACTORS FOR RAISING STUDENT-YOUTH INNOVATIVE THINKING IN THE HIGHER EDUCATION //American Journal of Pedagogical and Educational Research. – 2023. – T. 15. – C. 202-206.
2. Абдурахмонов Х. И. ҲОЗИРГИ ДАВРДА ЁШЛАРНИНГ ИННОВАЦИОН ПОТЕНЦИАЛИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МОДЕЛЛАРИ //Tafakkur manzili. – 2023. – T. 4. – C. 23-29.
3. Abdurahmonov H. I. CHARACTERISTICS OF FORMATION OF INNOVATIVE THINKING IN SOCIETY //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – T. 2. – №. 7. – C. 161-167.
4. Ibroximovich A. K. INNOVATIVE THINKING AND ITS FORMS AND TYPES OF MANIFESTATIONS. European Scholar Journal, 3 (5), 38-41 [Электронный ресурс].
5. Anvarovich P. A. et al. SUN'Y INTELEKKTNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI, FOYDALI VA ZARARLI JIHATLARI //PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA IJTIMOY TADQIQOTLAR| JOURNAL OF PEDAGOGY, PSYCHOLOGY AND SOCIAL RESEARCH. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 7-13.

6. Anvarovich P. A. et al. SUN'IIY INTELEKKTNING KUNDALIK HAYOTIMIZGA TA'SIRI, BIZ UCHUN BU HODISA IJOBOYMI? //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2024. – T. 4. – №. 2. – C. 9-13.
7. Ibroximovich A. X. et al. "O 'ZBEKISTON-2030" STRATEGIYASINING AMALIYOTDA JORIY QILINISHI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2024. – T. 4. – №. 1. – C. 58-64.
8. Kenjaboy o'g O. R. et al. SOHIBQIRON AMIR TEMUR HARBIY BOSHQARUV TIZIMI TARIXSHUNOSLIGI //SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI. – 2024. – T. 7. – №. 2. – C. 131-136
9. Boltayeva, B. (2023). DEVELOPMENT OF COMPETENCIES FOR SELF-STUDY OF STUDENTS IN A CREDIT-MODULAR SYSTEM AS A PEDAGOGICAL PROBLEM. Science and innovation, 2(B8), 39-42.
10. Boltaboyeva, B. (2023). KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNI MUSTAQIL BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 3(3), 40-42.
11. Болтаева, Б. Х., & Абдукодиров, П. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА. ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, 5(2).
12. Болтаева, Б. Х., Султонова, Л. Б., & Юсупова, Н. О. ВЕБ-КВЕСТ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ИНФОРМАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ WEB QUEST IS A DEVELOPMENT OF INFORMATIONAL SOURCE IN TECHNOLOGY. BBC 94 Z 40, 152.
13. Хашимова, Г. Ф., & Султанова, Л. Б. (2022). НАМКORLIK PEDAGOGIKASI ASOSIDAGI INTERFAOL METODLARNING SAMARADORLIGI. ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, 5(2).
14. Хусанова, К., Султанова, Л., Хусанбаева, Ю. и Абдурахимова, Д. (2020). «Средний возраст» как лучшее время человеческой жизни. Международный журнал психосоциальной реабилитации, 24 (2), 332-337.
15. Хашимова, Г. Ф., & Султанова, Л. Б. (2021). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ СФЕРЫ В РАМКАХ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ. ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, (SI-1).
16. Болтаева, Б. Х., Султанова Л. Б. ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДА ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ В ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ. Збиор артыкулов наукович рецензованич. , 186.